



MARKAZIY OSIYO TEMIR YO'L SANOAT KORXONALARINING XALQARO BOZORGA CHIQISH STRATEGIYASI

Qurbonov Ma'murjon G'ayrat o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi

mkurban19@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7148830>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 05th October 2022

KEY WORDS

temir yo'l transporti, xizmatlar sifati, strategiya, integratsiyalashuv, marketing, biznes reja, xalqaro bozorlar, sanoat korxona, ta'mir turlari, eksport, xizmatlar ekporti.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "O'ztemiryo'lmashta'mir" UKda sanoat korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasining nazariy asoslari ochib berilgan, shuningdek harajatlarning shakllanishi amaliyoti tahlil qilingan va mavjud tendensiyalar aniqlangan. Xizmatlar eksportini kengaytirish va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 70-90 foizi aynan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda. Jahon temir yo'llarining 2 trln. yo'lovchi-km yo'lovchi aylanmasi mamlakatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Yaponiya va Yevropa – 370-380 mlrd. yo'lovchi-km; Hindiston va Xitoy - deyarli 300 mlrd. yo'lovchi-km; boshqa mamlakatlar 200 mlrd. yo'lovchi-km¹.

So'nggi o'n yillikda mamlakatimiz temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni va uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan

islohotlarda temir yo'l transporti tizimining alohida o'rni bor. Ushbu transport turi zimmasiga 2016 yilda xalqaro yo'nalishdagi yo'lovchilarning 27,6 foizdan ko'prog'i, shuningdek, shahar atrofi yo'nalishlari bo'yicha 20,8 foizi to'g'ri keldi. Ammo temir yo'l transporti iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlar va turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan talablarni miqdor va sifat jihatdan qondira olmayapti. Shu boisdan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasida «...xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yuk va yo'lovchi tashish faoliyatini yaxshilash, ularning xavfsizligini oshirish vazifalari belgilab berilgan». Mazkur vazifalarning samarali ijrosini

¹ www.worldbank.org.



ta'minlash respublikamiz temir yo'l transportida innovasion faoliyatni rivojlantirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoniga asosan "...iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo'l ochish maqsadida eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiylashtirish hisobiga 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalar tugatilishi, ya'ni, 2022-yilda — 14 ta, shu jumladan sertifikatlashtirish xizmatlarini, 2023 — 2025-yillarda — 11 ta, temir yo'llarda tashishda qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish, aerovokzal va vokzal oldi komplekslarini yuritish xizmatlari, temir yo'lda ekspeditorlik xizmatlarini tarkibiga olgan jarayonlarni tartibga solish..."² va mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- sanoat korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasini shakllantirishning nazariy asoslash;
- O'zbekiston temir yo'llari sanoat tarmog'i tuzilmasi va tarkibiy o'zgarishlar

tahlili qilish;

- "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik faoliyati tahlil qilish;
- «O'ztemiryo'lmashta'mir» UK ning xalqaro bozorga chiqish bo'yicha optimal strategiyani aniqlash;
- «O'ztemiryo'lmashta'mir» ning xalqaro bozorga chiqish bo'yicha strategiya ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Afg'oniston hududida ekspluatatsiya qilinayotgan lokomotivlarni ta'mirlash uchun alohida loyiha ishlab chiqildi;
- «O'ztemiryo'lmashta'mir» UK ning xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasini amalga oshirish algoritmi ishlab chiqildi;
- loyiha doirasida investitsiya jalb qilish hajmi va loyihaning qoplash muddati aniqlandi;
- loyihaning zararsizlik nuqtasi aniqlandi.

«O'ztemiryo'lmashta'mir» UK 1931 yilda ochilgan va u temir yo'l tarmog'ida teplovoz va elektrovozlarni ta'miri bilan shug'ullanadi. Umumiy faoliyati sexlarga ajralgan holatda amalga oshiriladi. Ushbu sexlar yordamida butun zavoddagi ishlar yo'lga qo'yilgan.

Korxonaning 2019 – 2021 yillarda amalga oshirgan faoliyati tahlili orqali xalqaro bozorga xo'jalik faoliyatini tayyorlash bo'yicha tahlil olib borildi va quyidagi jadval orqali ushbu jarayonga e'tibor qaratamiz

Korxona faoliyatining asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lc hov birli gi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2020 yil 2019 yilga nisbatan o'zgarish		2021 yil 2020 yilga nisbatan o'zgarish	
					Mutlo q(+/-)	Nisbi y (%)	Mutlo q (+/-)	Nisbiy (%)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026-yillarga

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni



Teplovoz ta'miri jami:	Sek.	91	87	91	-4	95 %	4	105 %
Shu jumladan, «O'TY» AJ uchun	Sek.	77	75	72	-2	97 %	-3	96 %
Elektovoz ta'miri	Sek.	6	31	21	25	517 %	-10	68 %
Lokomativlarning kapital-tiklash ta'miri	Sek.	27	27	29	0	0	2	107 %
Taqqoslama narxlarida sotilgan mahsulotlar hajmi	mln so'm	74 520	75 171.3	82 332.4	651.3	109 %	7161.1	109 %
Amaldagi narxlarida sotilgan mahsulotlar hajmi	mln so'm	79 708 894.0	119 737.0	154 902 869.0	49 268.5	170 %	38 386.5	132 %
«O'TY» AJ ga sotish	mln so'm	54 730.3	101 934.0	111 693.8	47 203.7	186 %	9 75.8	109 %
Boshqa korxonalarga mahsulot sotish	mln so'm	15 436.7	16 867.9	37 775.6	1 431.2	109 %	20 907.7	223.9 %
	%	22%	14%	24%	- 8 %	63 %	10 %	171 %
Eksport qilingan xizmat hajmi	ming	9 879,5	7 725,4	6 713,1	-2154,4	-21,8%	-1012,3	-13%


Yuqoridagi 1-jadvalda korxonaning hajm va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Jadvalning teplovoz ta'mirlash ko'rsatkichi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan mutloq miqdorda 4 ta kamaygan yoki nisbiy miqdorda oladigan bo'lsak bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 5% miqdorda kamaygan. Bunga sabab 2018-yilda teplovoz tamirlash jarayoni kamayganligi, ya'ni buyurtmalar sonini kamayganligi hamda teplovozlarning ishiga talabning kamayishi, asosiy buyurtmachilardan biri bo'lgan O'TY AJ liniyalari elektirlashtirilganligi.

Undan tashqari hususiy korxonalardan tamonidan buyurtmalar 2019-yilda 14 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 12 ta bo'lgan bu yerda ham o'tgan yilga nisbatan 2 taga kamayganin ko'rishimiz mumkin. Lekin bu ko'rsatkichlar tarkibida tashqi iste'molchi mamlakatlarga 4 tasi ta'luqliligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. 2021-yilda esa o'zgarishsiz qolgan, lekin xususiy korxonalar va xorijiy davlatlar tamonidan bo'lgan buyurtmalar hajmini

ortishi, ya'ni 19 ta ta'mirning 13tasi bevosita mamlakat ichkarisidagi korxonalarga qolgan 6 tasi esa qo'shni mamlakatlarga to'g'ri kelishi kuzatilgan. Bu jarayon korxonaning eksport imkoniyatlarini qanday holatda ekanligidan dalolat beradi.

Jadvaldagi ikkinchi ko'rsatkich elektravoz ta'mirlash ishlarining umumiy hajmida o'sish holati kuzatilgan. 2019-yilda bu ko'rsatkich 6 ta 2020-yilda esa 31 ta, ya'ni 25 taga ortgan, 2021-yilda 2019 yilga miqyosda esa 15 taga ko'paygan, ammo o'tgan yilga nisbatan 10 taga kamaygan. Nisbiy miqdorda 2020 yilda 2016 yil holatiga ko'ra 516 % foizni tashkil qilgan. Endi 2020-yilni 2021-yilga nisbatan o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, bu yerda salbiy natijaga erishilganligini, ya'ni ishlarining umumiy hajmda kamaygan. Bu ko'rsatkichni aniq raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, ishlarining umumiy hajmi o'tgan yilga nisbatan 10 taga, nisbiy miqdorda esa 32% foizni tashkil qilgan pasayish holati bor.

IQTISODIY KO'RSATKICHLAR



1- rasm. 2019-2021 yillardagi korxonalar miqyosida bajarilgan buyurtmalar

Bunda 2019 yilgi eksportdan 9 879,5 ming so'mlik daromad ko'rilgan, 2020 yilda esa o'tgan yilgiga nisbatan 21% lik kamroq ishlar amalga oshirilgan. 2021 yilda esa 6 713,1 ming so'mlik xorij mamlakatlariga xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich dastlabki keltirilgan yildagi eksport miqdoriga qiyoslaganda 32 % lik kam natijani qayd etgan bo'lib, ushbu kamayishlar chegaralar aro yopilishlar va koronavirus pandemiyasi sharoitidagi vaziyat sababdan yuzaga kelgan.

Iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda ushbu korxona uchun uzoq muddatga mo'ljallab ishlab chiqilgan reja

"O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR" UK ning bilvosita eksport orqali xalqaro bozorlarga chiqishi rejasining tuzilishi quyidagicha:

"O'ztemiryo'lmashta'mir" UKning Janubiy Osiyo bozorlariga chiqishi bo'yicha biznes-reja.

Biznes-rejaning qisqacha mazmuni:

Loyiha tashabbuskori:

"O'ztemiryo'lmashta'mir" UK

Loyiha nomi: "O'ztemiryo'lmashta'mir"

UK eksport faoliyatini Janubiy Osiyo mamlakatlariga kengaytirish

Missiya: Korxona mintaqa mamlakatlarini ta'mir xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, Janubiy Osiyo bozorida mavjud siyosiy vaziyat tufayli iste'molchilar talabini qondirish.

Loyiha maqsadi: mahalliy bozordagi ta'mir xizmatlarini to'g'ridan to'g'ri xorij mamlakatlari bilan aloqa o'rnatish.

Xizmat turi: kapital ta'mir KR-1, KR-2 va KRP
Tadbiq etiladigan hudud: Afg'oniston Islom Respublikasi (Afg'oniston amirligi).

Taqdim etilgan xizmatlarning tavsifi:

Birinci navbatda, O'zbekiston va tashqi bozorlarda strategik ustunlikka ega bo'lgan, Osiyo davlatlari iste'molchilarning afzalliklarini hisobga olgan holda, xizmatlar ko'rsatish amalga oshiriladi:

- Joriy ta'mir (TR-3);
- Kapital ta'mir (KR-1);
- Kapital ta'mir (KR-2);
- Xizmat muddati uzaytirilgan kapital tiklash ta'miri (KRP).



Ushbu xizmat turlari mintaqa mamlakatlari bilan geografik joylashuv va xalqaro siyosiy-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib zarurdir. Janubiy Osiyo uchun sifatli va ishonchli xizmat transport-logistika koridorlarining barqaror faoliyatini ta'minlab beradi. Bugungi kunda Afg'oniston mamlakatidagi magistral lokomotivlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mir ishlarini amalga oshiradigan infrastruktura obyektlari mavjud emasligini inobatga olib, ko'rsatiladigan ta'mirlash ishlarini mamlakatning yangi hukumati uchun o'ta muhimdir.

Bozor tahlili va raqobatdosh ustunliklar:

Ushbu bozorda ta'mirlashga yuqori iste'mol talabi, shuningdek, mahalliy boshqa ta'mir korxonalarining mahalliy korxonalarga to'liq xizmat ko'rsata olmasligi sababli bozorda alohida ajralib turadi. Bundan tashqari, iste'molchilar yuqori to'lov qobiliyatiga ega, tashishni tashkil etuvchi infratuzilma zanjirining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, korxona bozorga kirib, ma'lum bir ulushga ega bo'ladi, chunki talab taklifdan oshib ketadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston ushbu qo'shni mamlakatning ishonchli hamkorlaridan biri va Afg'oniston temir yo'llari qurilishida jonbozlik ko'rsatgan mamlakatlardandir. Garchi butun afg'on temir yo'llarining qisman ekspluatatsiyasi mamlakatimiz tomonidan amalga oshirilsada, boshqa davlat ta'mir korxonalari kelgusi davrda bizga raqobatchi bo'lishi mumkin.

Afg'oniston bozori:

Afg'oniston bu mamlakat temir yo'l tarmog'i 3 yo'nalishda faoliyat olib boradi: Xayraton-Mozori-Sharif(90km,2010-yil ishga tushgan), Serxitobod-Turg'undi(10 km,

1960 yilda yo'lga qo'yilgan), Aqina-Kerki (58km, 2021 yil yanvar oyida ishga tushirilgan). Bu yo'nalishlarda ekspluatatsiya ishlari qaysi mamlakat tomonidan ushbu yo'llar qurilgan bo'lsa o'sha mamlakat tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Monyovr ishlarida TGM4B-0180 (TGM4B) rusumli Afg'oniston temiryo'llari tarkibidagi 2 dona teplovozlardan foydalaniladi. O'zbekiston tomonidan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Termiz MTU balansidagi magistral teplovozlar(UzTE16M) "Sug'diyona-Trans" MChJ orqali yuk tashish ishlarida xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Lokomotivlarning ta'miri ushbu mamlakat xududida ta'mir bo'yicha infratuzilma obyektlari mavjud bo'lmaganligi sababli texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq moliyaviy masalalar esa O'zbekistonlik mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Afg'oniston temir yo'llari bilan amalga oshirilayotgan transport yuk tashuvlari uchun oyiga 2,5-4 million AQSh dollari miqdorida daromad ko'rmoqda va xizmat ko'rsatayotgani uchun O'zbekiston hukumatiga yillik 18 million AQSh dollari to'lab kelmoqda. Magistral teplovozlar ta'miri esa Afg'on temir yo'llari tomonidan moliyalashtirilmoqda.

Marketing rejasi: yuqori sifatli va tez ta'mir ishlarini taklif etish, shuningdek, vagonlarni diagnostika qilib ishonchli konsalting xizmatlarini tashkil etish.

Korxonaning narx siyosati: narx siyosati - bu korxona o'z xizmatlariga narxlarni belgilash orqali erishmoqchi bo'lgan umumiy maqsadlarni anglatadi, bu marketing islohatining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, faol narx siyosati taklif etiladi, u narxlarni rivojlantirish strategiyasidan iborat, ya'ni, raqobatchilarning narx



darajasidan biroz pastroq narx darajasini qo'llash va sotish hajmini oshirish va bozor ulushini egallash orqali ko'proq foyda massasini oshirishdir. Shu bilan birga, narx mutlaq qiymatdan past bo'lishi shart emas - u ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan yuqori sifatli bo'lishi kerak. Narxlashtirishga geografik yondashuv korxona tomonidan turli masofadagi iste'molchilar uchun turli narxlarni o'rnatish haqida qaror qabul qilishni taqozo etadi. Uzoqdagi mijozga xizmatlarni ko'rsatish korxona uchun yaqinda joylashgan mijozga qaraganda qimmatga tushadi. Shu bilan birga, raqobatchilarning narx darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin emas deb hisoblanadi.

Tashkiliy reja

"O'ztemiryo'lmashta'mir" UK O'zbekiston bozorida yetarlicha barqaror mavqega ega ekanligini va Markaziy Osiyo mamlakatlarida eksport faoliyatini amalga oshirishini hisobga olgan holda, korxona qo'shimcha xodimlarni yollash zarurati yo'qligi sababli ish haqi fondini tejash imkoniyatiga ega.

"O'ztemiryo'lmashta'mir" UK ning raqobatdosh afzalliklaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, Afg'oniston bozoridagi iste'molchilarning afzalliklarini hisobga olgan holda, eng muhim ta'mir turlari: joriy ta'mir-3 (TR-3), kapital ta'mir-1(KR-1), kapital ta'mir-2 (KR-2), Xizmat muddati uzaytirilgan kapital tiklash-ta'miri (KRP). Jadvalda har bir yo'nalish bo'yicha rejalashtirilgan xizmat ko'rsatish hajmlari, shuningdek, rejalashtirilgan daromad ko'rsatilgan

2 Jadval.

Xorijdagi mijozlar uchun kutilayotgan xizmat ko'rsatish xajmi va kutilayotgan narx (UzTE16M teplovozi doirasida)

Xizmat turi	birligi	xizmat ko'rsatish hajmi	narx/ har seksiya uchun (ming so'mda)	kutilayotgan daromad (ming so'mda)
JT-3(TR-3)	seksiya	10	1 925 419,50	19 254 194,99
KT-1 (KR-1)	seksiya	9	2 261 955,89	20 357 603,00
KT-2 (KR-2)	seksiya	7	4 347 563,10	30 432 941,71
KT-3 (KR-3)	seksiya	8	4 647 110,61	37 176 884,88
			Jami	107 221 624,58

Jadvalda rejalashtirilgan ishlab chiqarish uchun zarur hajmdagi xom ashyo xarajatlari, kommunal xizmatlar, logistika xarajatlari, bojxona rasmiylashtiruv va to'lovlarni hisobga olgan holda tayyor

mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) uchun umumiy xarajatlar ko'rsatilgan va korxonaning mavjud potensialidan kelib chiqib tuzilgan.

3 - Jadval.



Tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun umumiy xarajatlar³


To'g'ridan to'g'ri umumiy ishlab chiqarish xarajatlari		
Xarajat nomi	Moddiy xarajatlar/ xar birlik uchun	Jami moddiy xarajatlar (ming so'mda)
Lokomotiv yig'uv sexi bo'yicha jami xom-ashyolar:	74 734,97	601 491,85
Lokomotiv yig'uv sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	897 326,11	6 993 741,41
Elektr mashinalarini ta'mirlash sexi bo'yicha jami materiallar:	10 145,98	84 365,11
Elektr mashinalarini ta'mirlash sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	10 287,04	81 675,43
Elektr jixozlarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami materiallar:	504 695,80	3 989 808,35
Elektr jixozlarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	491 480,09	3 859 730,12
Dizellarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami xom-ashyolar:	7 466,42	60 574,10
Dizellarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	4 999 863,65	39 946 036,27
Ta'mirlov butlov sexi bo'yicha jami materiallar:	23 936,74	190 827,45
Ta'mirlov butlov sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	497 034,46	3 950 049,26
Yog'ochlarni sozlash uchastkasi bo'yicha jami xom-ashyolar:	8 286,92	67 739,91
G'ildiraklarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami materiallar:	497 734,26	3 991 482,92
G'ildiraklarni ta'mirlash sexi bo'yicha jami yarim tayyor maxsulotlar:	48 315,98	376 230,82
Asosiy faoliyatdagi ishchilar ish xaqisi	659 410,95	5 436 067,82
Ijtimoiy soliq	79 129,31	652 328,14
Elektr mashinalar ta'miri	1 896 050,00	15 678 510,80
Jami:	10 705 898,68	85 960 659,76
Bilvosita umumiy ishlab chiqarish xarajatlari		
Doimiy xarajatlar	Qiymat, mingso'mda	

³ Manba: "O'ztemiryo'lmashta'mir" UKning 2019-2021 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari xisoboti ma'lumotlari asosida mullif tomonidan tayyorlangan

Kommunal to'lov	4 000 800,00
Amortizasiya	1 032 852,89
Transport xarajatlari	234 800,00
Jami:	5 268 452,89

Ishlab chiqilgan strategiya loyihasi bo'yicha kutilayotgan hajm bo'yicha jami 91 229 112,65 ming so'mlik ishlab chiqarish xarajatni o'zichiga olgan. Sotishdan daromad esa 107 221 624,8ming so'mni tashkil etib, shundan 15 992 512,15 ming so'mlik daromad xizmatlar eksportini ko'rsatish orqali erishiladi.

Zararsizlik nuqtasi hisob kitob qilinganda, xizmat ko'rsatish umumiy seksiya hisobida aniqlanganda 3 ta seksiya lokomotiv teplovozi ta'miri 1 784 134,13 ming so'mlik (162 563,18 AQSh dollari) miqdorda daromad keltirishni boshlashi aniqlandi.



3.1 -Rasm. Zararsizlik nuqtasi⁴

Moliyalashtirish manbalari. Afg'oniston Islom Respublikasi (Afg'oniston amirligi) Osiyo taraqqiyot bankining CAREC(MOMIH) dasturidagi mamlakatlaridan biri hisoblanadi va mintaqaning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida bu dastur turli hil loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK xizmatlar eksportini Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalariga amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlanmoqda va shu sababli Afg'oniston Islom Respublikasi (Afg'oniston amirligi) bozorida eksport faoliyatini amalga oshirish yangilik emasdek ko'rinadi, lekin korxona

iqtisodiy ko'rsatkichlarida xizmatlar eksporti salmog'ini oshirishi va xizmatlar eksporti bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibda iqtisodiy kengayishi mumkin:

⁴Manba: "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK uchun tuzilgan loyiha uchun muallif tomonidan ishlangan rasm.



- eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan loyihani amalga oshishi moliyalashtirilishi mumkin;

-eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan, aylanma mablag'lar uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha tijorat banki tomonidan belgilangan kredit foiz stavkasi va miqdoridan qat'i nazar, milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining 50 foizigacha, biroq 10 foiz banddan ko'p bo'lmagan miqdorda, shuningdek, chet el valyutasidagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining 50 foizigacha, biroq 5 foiz banddan ko'p bo'lmagan miqdorda kompensatsiyalar taqdim etadi. Bundan tashqari, tijorat banklarining eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan, aylanma mablag'lari uchun beriladigan kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha, biroq 8 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik beradi.

Xulosa qilib aytganda, «O'ztemiryo'lmashta'mir» UK korxonasi uchun xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasi taklif qilindi. Ishning asosiy gipotezasi shundaki, bevosita eksport strategiyasi xalqaro bozorlarga chiqish uchun boshqa barcha strategiyalar orasida korxona uchun eng maqbuldir. Shunday qilib, tahlil davomida faoliyatni boshlashning asosiy strategiyasi bilvosita eksport strategiyasi ekanligi aniqlandi. Ushbu strategiya kompaniya uchun eng maqbuldir, chunki u bir qator afzalliklarga ega: birinchidan, ushbu strategiya eng kam qiymat, ikkinchidan, ushbu strategiyani amalga oshirish imkoniyati ushbu bozorlarda juda katta.

Korxonalarni tashkil etish yoki franchayzing holatida korxona juda katta xarajatlarni talab qiladi va loyihani amalga oshirish xavfini oshiradi, bundan tashqari, kompaniya nazorat funksiyalarini bajarishi

kerak, bu esa uning bir qismini tashqi bozorlar hududiga joylashtirishni nazarda tutadi, bu esa o'z navbatida kompaniya xarajatlarini oshiradi. Shunday qilib, bevosita eksport strategiyasi «O'ztemiryo'lmashta'mir» UK uchun maqbuldir. Strategiyani amalga oshirish uchun kompaniya uchun foyda va loyihani qoplash prognozi bilan biznes-reja taklif qilindi. Hisob-kitoblarga asoslanib, hozirgi paytda «O'ztemiryo'lmashta'mir» UKsi o'z mablag'larini investitsiya qilish, shuningdek investor mablag'larini jalb qilish imkoniyatiga ega. Ushbu loyiha kompaniya uchun muvaffaqiyatli bo'ladi va yetarli to'lov va yuqori rentabellikka ega bo'ladi. Investitsiya qilingan mablag'larning umumiy qoplash muddati 96 oyni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, tahlil davomida «O'ztemiryo'lmashta'mir» UK eksport faoliyatini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar aniqlandi.

Asosiy risklar valyuta va siyosiy risk hisoblanadi. Valyuta xavfi yuzaga yuqori ehtimoli bor va shuning uchun kompaniya tashqi savdo shartnomalari himoya shaklida bu xavfini kamaytirish uchun profilaktika chora-tadbirlar qabul qilish tavsiya yetiladi. Siyosiy xavf, o'z navbatida, o'rtacha yehtimollikka ega, chunki munosabatlarning yomonlashishini istisno qilib bo'lmaydi. Shunga qaramay, so'nggi paytlarda siyosiy muhitni yaxshilash va Janubiy Osiyo mamlakatlarining O'zbekiston bilan sheriklikka yo'naltirilishi bo'yicha aniq tendensiya mavjud.

Dissertatsiyani bajarish davomida «O'ztemiryo'lmashta'mir» UKning xalqaro bozorlarga chiqish strategiyasi doirasida quyidagi takliflarni kiritdik:

1) Afg'oniston hududida ekspluatatsiya qilinayotgan lokomotivlarni ta'mirlash uchun alohida loyiha ishlab chiqish;



- 2) Loyihani tadbqiq etish yuzasidan “yo‘l xaritasi” sini ishlab chiqish;
- 3) Loyiha doirasida ishchi guruhni shakllantirish (tajriba, xorijiy til ko‘nikmasi, jinsiy tafovutlar va hakoza);
- 4) Loyiha shaffofligini har ikkala tomon

uchun ta‘minlash;

- 5) Ta‘mirlash ishlari bo‘yicha afg‘onistonlik mutaxassislarni ishlab chiqrish amaliyotiga jalb qilish;
- Xalqaro bozorlarga chiqishning muqobil variantlarini izlashni davom ettirish.

References:

1. www.worldbank.org.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni;
3. “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UKning 2019-2021 yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari xisoboti ma‘lumotlari
4. “Unlocking the potential of railways” A railway strategy for CAREC, 2017-2030, Endorsed at the 15 th CAREC Ministerial Conference Islamabad, Pakistan 26 october 2016 y.